

## TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARGA QO'YILADIGAN TALABLARNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

*To'rayeva Madina Mirzo qizi*  
*Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani*  
*1-maktab amaliyotchi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida pedagoglarga qo'yiladigan talablarning psixologik jihatlari yoritilgan. Pedagog shaxsiga xos bo'lgan kasbiy va psixologik sifatlar, ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda o'quvchilar shaxsini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogning kommunikativ qobiliyati, emotsional barqarorligi, kasbiy kompetentligi va psixologik madaniyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, pedagogik faoliyat, psixologik kompetentlik, kommunikativ qobiliyat, emotsional barqarorlik, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, kasbiy rivojlanish, psixologik madaniyat, o'qituvchi shaxsi.

### KIRISH

Ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan pedagog shaxsiga va uning kasbiy faoliyatiga bog'liqdir. Pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyachi ham hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarga yuqori darajadagi kasbiy va psixologik talablar qo'yilmoqda. Mazkur talablar pedagogning nafaqat bilim va ko'nikmalariga, balki uning shaxsiy fazilatlarini, hissiy holati va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatiga ham taalluqlidir.

Pedagog shaxsiga qo'yiladigan eng muhim psixologik talablardan biri kasbiy kompetentlik hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik pedagogning o'z fanini mukammal bilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Kasbiy jihatdan yetuk pedagog o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos yondashuvni tanlay oladi. Pedagogik faoliyatda kommunikativ qobiliyat alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olishi zarur. Samimiy, ochiq va hurmatga asoslangan muloqot ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lgan pedagog o'quvchilarning fikrlarini tinglaydi, ularni tushunishga harakat qiladi va sog'lom psixologik muhit yaratadi.

Emotsional barqarorlik ham pedagogga qo'yiladigan muhim psixologik talablardan biridir. Ta'lim jarayonida turli murakkab vaziyatlar, nizolar va stressli

holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda pedagog o'z hissiyotlarini boshqara olishi, vazminlikni saqlashi va oqilona qaror qabul qilishi lozim. Emotsional jihatdan barqaror pedagog o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va sinfda sog'lom psixologik muhit shakllanishiga yordam beradi. Pedagogning empatiya qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. Empatiya – bu boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish va his qila olish qobiliyatidir. O'quvchilarning ichki kechinmalarini anglay oladigan pedagog ularning muammolarini to'g'ri baholaydi va zarur yordam ko'rsatadi. Ayniqsa, qiyin tarbiyalanadigan yoki psixologik muammolarga ega bo'lgan bolalar bilan ishlashda empatiya muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim tizimida pedagogning psixologik madaniyati ham muhim o'rin tutadi. Psixologik madaniyat o'zini anglash, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, boshqalar bilan to'g'ri munosabat o'rnatish va nizolarni konstruktiv hal etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Psixologik madaniyat darajasi yuqori bo'lgan pedagog o'quvchilarda ham ijobiy xulq-atvor va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantira oladi.

Pedagogik faoliyatda adolatlilik va xolislik tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi barcha o'quvchilarga teng munosabatda bo'lishi, baholashda xolislikni saqlashi va shaxsiy munosabatlarni ta'lim jarayoniga aralashtirmasligi zarur. Adolatli pedagog o'quvchilar orasida hurmat qozonadi va ularning ishonchini mustahkamlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimi pedagoglardan ijodkorlik va innovatsion fikrlashni ham talab qiladi. O'quvchilarning qiziqishini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun yangi metod va texnologiyalardan foydalanish zarur. Ijodkor pedagog o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanishga va yangilik yaratishga undaydi.

Pedagogning motivatsiyasi va kasbga sadoqati ham muhim psixologik omillardan biridir. O'z kasbini sevuvchi, ta'lim va tarbiya ishlariga mas'uliyat bilan yondashuvchi pedagog yuqori natijalarga erishadi. Kasbiy motivatsiya pedagogning o'z ustida ishlashi, malakasini oshirishi va doimiy rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Maktab psixologi va pedagoglarning hamkorligi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Psixolog pedagoglarga o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari haqida ma'lumot beradi, murakkab vaziyatlarni hal etishda maslahatlar beradi va psixologik profilaktika ishlarini tashkil etishda yordam ko'rsatadi. Pedagogning shaxsiy namuna bo'lishi ham o'quvchilar tarbiyasida muhim omil hisoblanadi. O'quvchilar ko'pincha o'qituvchining xulq-atvori, muomala madaniyati va hayotiy qarashlaridan o'rnatiladilar. Shu sababli pedagog doimo yuksak axloqiy fazilatlarini namoyon etishi zarur.

Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ham o'quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko'rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o'z faoliyatining jarayoni va

natijasiga e'tibor berishni misol qilish mumkin. Pedagogik faoliyat pedagogik vaziyatdagi turli-tuman xatti-harakatlarning umumlashmasidan iborat: perseptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qilish, baholash va h.k. Ushbu turlituman faoliyatlarning jamlanmasi bir qancha psixologo-pedagogik funksiyalarni belgilab beradi. P.F.Kapterev o'qituvchiga xos bo'lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. Umumiy ko'rinishda u quyidagicha aks etadi:

1. Kasbiga xos bilimi: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, ayniqsa yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi, etnopsixologik bilimlarni egallashi, hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi, hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi, maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi, o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

2. O'z kasbiga xos xislatlari: o'qituvchining kuzatuvchanligi, o'z diqqate'tiborini taqsimlay olishi, pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta olishi, pedagogik takt, nutqning emotsional ifodalanishi;

3. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilimi o'sishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi, pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtira olish, bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi, o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

4. Tashkilotchilik malakalari: bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni nimalar bilandir qiziqtirib, ularni faollashtira olishi, amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi.

5. Kommunikativ malakalari: bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi, bolalarning jamoalararo va jamoa ichidagi o'zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

6. Gnostik malakalari: bolalarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi, psixologik-pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi, o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi.

7. Ijodiy xislatlari: pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshira olish qobiliyati, o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi; avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati, o'zining o'quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi: shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi; pedagogik mahorat va qobiliyati; xarakterining psixologik xususiyatlari; bilish faoliyati; o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti. Professiogramma yoshlarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi. Professiogrammani kasbga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyati va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini albatta ko'rsatish zarurdir. Pedagogik faoliyat tezligi va muvaffaqiyati asosida N.V.Kuzmina o'qituvchilarni uch guruhga boladi:

1. Kasbiy malakalarni tez o'zlashtiradi, o'z faoliyatida tezda muvaffaqiyatga erishadi, dars qoldirmaydi.

2. Kasbiy sifatlarni sekin o'zlashtiradi, ba'zan dars qoldiradi, ammo pedagogik xususiyatlarni sekin-asta bo'lsa-da o'zlashtirib oladi.

3. Ko'p yillik faoliyati davomida ham o'qituvchilik qobiliyatini egallamaydi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatga murakkab dinamik sistema sifatida qaraydi. A.I.Sherbakov ishlarida esa pedagogik ta'lim muammolari ko'zga tashlanadi. O'qituvchi shaxsi yo'nalganligining shakllanishi masalasida to'xtalar ekan, muallif o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitish jarayonida e'tiborga olish zarur bo'lgan vaziyatlar xususida o'z tavsiyalarini beradi. Ayniqsa, olim bo'lajak o'qituvchi xulq-atvor xususiyatlarining shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratadi. Pedagog doimo psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi kerak. Uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishi darkor, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi shuningdek, psixologiya va boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya. Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat - bu o'zo'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir. O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: Sezgi, idrok,

diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq shuningdek shaxs xislatlari - xulq atvori, emotsional holati, vaziyatga munosabati.

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda. Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'ya oladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi va obro'-e'tibori ta'lim-tarbiya jarayonida bolada qat'iy nuqtayi nazarning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

O'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlarni to'liq egallagan bo'lishi lozim, bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladilar, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, o'quvchilar e'tiborini kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi. O'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyati uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etish o'quvtarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir. Talabalarda kasbni egallashning shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog'liqdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar to'la shakllangan bo'lsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamoloti uchun hech narsa to'siq bo'la olmaydi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida pedagoglarga qo'yiladigan talablar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Kommunikativ qobiliyat, emotsional barqarorlik, empatiya, adolatlilik, ijodkorlik va psixologik madaniyat pedagog faoliyatining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mazkur sifatlarning rivojlanganligi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish va sog'lom psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2018.
5. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2021.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020.
7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
8. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 2017.
9. Muxina V.S. Vozrastnaya psixologiya. – Moskva: Akademiya, 2019.
10. Shoumarov G‘.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2020.